



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

BUYRUQ

2022-yil “13” 01.

№ 01-14

Toshkent sh.

**Kafedralar huzuridagi
ilmiy-tadqiqot Markazlari
faoliyatini jadallashtirish to'g'risida**

Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2021-yil 23-iyuldagagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayoni ayrim bandlari ijrosini ta'minlash to'g'risida”gi 314-sonli buyrug'i, universitet rektorining 2021-yil 4-avgustdagagi №01-258/2-sonli hamda 2021-yil 10-sentabrdagi №01-302-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor (Z.Abdirashidov)ga:
 - ilmiy-tadqiqot markazlarining faoliyatini muvofiqlashtirish;
 - har chorakda ularning faoliyati bo'yicha monitoring o'tkazish va universitet Kengashiga hisobot kiritish;
 - monitoring natijalariga ko'ra ko'rsatkichi past bo'lgan markaz direktorlariga nisbatan intizomiy chora ko'rish bo'yicha taqdimnomalar kiritish vazifalari yuklatilsin.
2. Ilmiy tadqiqotlar va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi (N.Jo'raqo'ziyev)ga:
 - iqtidorli talabalarni Markazlarga jalb etish bo'yicha Markaz direktorlari bilan tizimli ishlarni yo'lga qo'yish;
 - 2 hafta muddatda Markazlarning jozibadorligini oshirish maqsadida ularning umumlashgan veb sahifasini yaratish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.
3. Axborot-texnologiyalar markazi (B.Elov):
 - 2 hafta muddatda Markazlarning umumlashgan veb sahifasini yaratish bo'yicha malakali mutaxassisni jalb qilish choralarini ko'rsin.

4. Bosh hisobchi (J.Aminov):

- veb sahifani yaratish bilan bog'liq xarajatlarni universitetning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan qoplash choralarini ko'rsin.

5. Ilmiy-tadqiqot Markazlari direktorlariga:

ikki hafta muddatda:

- Markaz faoliyatini tizimli yuritish va faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan bir yillik rivojlantirish strategik rejasini ishlab chiqish;
- Markazning daromad topish manbalarini aniqlash va kamida 10 (o'n) ta xo'jalik shartnomasi imzolashga mo'ljallangan bir yillik maqsadli reja ishlab chiqish;
- Markaz faoliyatiga iqtidorli talabalarni keng jalb qilish bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqish;
- Markazda faoliyat olib borayotgan yetakchi olimlarning ilmiy maktablarini yaratish bo'yicha yo'l xaritasini ishlab chiqish;

- Markaz xodimlarining lavozim vazifalari hamda ularning o'quv yiliga mo'ljallangan shaxsiy ish rejalarini ishlab chiqish va tasdiqlash vazifalari yuklatilsin.

Markaz direktorlari Markazlarning samarali faoliyati uchun shaxsan ma'sul hisoblanadi.

6. Universitet kengashi kotibi (J.Xudoyberdiyev)

- Markaz direktorlarining har chorak yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan universitet Kengashida hisobot berishini nazoratga olsin.

7. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Asos: Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-iyuldagи "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021-yilning 16-iyun kuni o'tkazilgan 34-sonli yig'ilish bayoni aymir bandlari ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 314-sonli buyrug'i, universitet rektorining 2021-yil 4-avgustdagи №01-258/2-sonli hamda 2021-yil 10-sentabrdagi №01-302-sonli buyrug'i hamda universitet Kengashining 2021-yil 28-avgustdagи 1-sonli majlisi qarori.

Rektor v.v.b.



Z.Abdirashidov